# ZiyoNET axborot ta’lim portali





Umumiy o’rta ta’lim muassalari uchun

ZiyoNET

# ZiyoNET tarmog'ining tashkil etilishi hamda faoliyatiga oid asosiy me'yoriy hujjatlar

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-sentyabrdagi **PQ-191-sonli** "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 28-dekabrdagi **282-sonli** "ZiyoNET" axborot tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 10-iyuldagi **198-sonli** "ZiyoNET" ta'lim axborot tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2015-yil 12-fevraldagi **31-sonli** "ZiyoNET tarmog'i axborot resurslarini rivojlantirish, yangilash va ekspertizadan o'tkazish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida"gi buyrug'i.

ZiyoNET

# Tarmoqning asosiy vazifalari:

1

- O'zbekistonning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, yoshlarning ma'naviy, aqliy jihatdan kamol topishiga ko'maklashadigan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tahliliy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ta'lim hamda boshqa axborotlardan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash;

2

- Faol hayotiy mavqega ega bo'lgan barkamol shaxsiy voyaga yetkazishga qaratilgan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish;

3

- Respublika o'quvchilari va yoshlari uchun masofaviy ta'lim usullarini, boshqa axborot-kommunikatsiya xizmatlarining keng kompleksini ta'lim tizimiga joriy etishda ko'maklashish;

4

- Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, har xil sport turlarini ommalashtirish.

ZiyoNET

# Portalning bosh sahifasi



ZiyoNET

# Arboblar




Xalqimiz tarixida fan va madaniyat sohasida o'chmas iz qoldirgan insonlar behisobdir. Ushbu bo'limda aynan ularning hayoti va ijodi, faoliyati, bizga qoldirgan ma'naviy boyliklari haqida ma'lumot beriladi. Bu yerda dunyoga mashhur adabiyot namoyondalari; o'zbek tuprog'ida tug'ilib – o'sib, sport sohasida yurtimizning shuhratini olamga tanitgan **300** dan ortiq insonlar haqidagi ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin.






ZiyoNET

# Audiokitoblar

**Endi resurslarni o’qish yoki ko’rishingiz, balki tinglash imkoniyatiga ham egasiz.**



“Audiokitoblar” bo’limida har bir foydalanuvchi rus, o’zbek, qoraqalpoq va boshqa tillardagi qiziqarli audiokitoblarni topishi mumkin bo’lgan audiomateriallar zahirasini mujassamlashtirgan. Audiokitoblar bugungi tezkor va zamonaviy muhit uchun juda qulay manba hisoblanadi.



ZiyoNET

# Guruhlar







**Guruhlar** - barcha foydalanuvchilarni jalb etgan holda turli yo'nalishdagi mavzuda guruh tashkil etadi. Shu bilan birga sinfdoshlar va ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun do'stona muloqot maydoni hamdir.

# Iqtidorli yoshlar

**Iqtidorli yoshlar** bo'limi orqali yosh bo'lishiga qaramay, o'z sohasida yuksak natijalarga erisha olgan tengdoshlaringizning tarjimai holi hamda faoliyati to'g'risida boxabar bo'lasiz.






Asosiy > Iqtidorli yoshlar > Barcha yo'nalishlar

Qidiruv

| | |
|---|---|
| Barcha yo'nalishlar | 550 |
| Fan | 268 ▾ |
| Madaniyat | 5 ▾ |
| Adabiyot | 1 ▾ |
| Sport | 233 ▾ |
| Jamiyat | ▾ |

UZINFOCOM®

*Mustaqilligimizning 24 yilligi muborak bo'lsin!*

## Barcha yo'nalishlar

A B D E F G H I J K L M N O P Q R S T U V X Y Z CH G' O' SH

Natijalar 1—10 jami 550 tadan

**Aliyev Sherali Asqar o`g`li**

2014-2015 o`quv yilida Navoiy nomli davlat stipendiyasining sovrindori Aliyev Sherali Asqar o`g`li 1992 yil 10 sentyabr Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tavallud topdi. Maktabni bitirgach, yuridik kollejiga o`ishga kirdi. Keyinchalik u Toshkent davlat yuridik universitetiga grant asosida o`qishga kirdi.U "O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy asosi", "Intellektual rivojlangan yoshlar taraqqiyotning eng muhim sharti", "O`zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoatchilik nazoratining o`rni" kabi ilmiy maqolalari hamda "O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila institutining huquqiy asoslari" va "Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqiy hayot sohasini liberallashtirishning xususiyatlari" nomli ilmiy-ommabop risolalar muallifi. 2012 yil "Kamolot" YOIH tomonidan o`tkazilgan "O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligining kafolati" mavzusidagi targ`ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishdagi ko`magi uchun "Kamolot" YOIHning faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan.2013 va 2014 yillar O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan yoshlar o`rtasida o`tkazilgan "Parlamentarizm bilimdoni-2014" on-line tanlovida faol ishtiroki uchun diplom bilan taqdirlangan. ...

**Begamov Safar Xolmirzayevich**

Familiya, ism-sharifi: Begamov Safar XolmirzayevichTug'ilgan yili, kuni va joyi: 13.08.1991yil Termiz shahrida tavallud topgan.Ta'lim olgan/olayotgan maktabi:Termiz shahar 12- umumiy o'rta ta'lim maktabini tamomlaganTahsil olgan/olayotgan oliy ta'lim muassasasi: Termiz davlat universiteti iqtisodiyot fakultetida tahsil olmoqdaFaoliyat yo'nalishi: Xorijiy investitsiyalarni jalb yetish va uning samaradorligini oshirish.Erishgan natijalari: 2014 yil Moliya –kredit fanlari" bo'yicha fan olimpiadasi g'olibi...

**Dadajonova Madinabonu Odiljon qizi**

Dadajonova Madinabonu Odiljon qizi 1991 yil 29 oktyabrda Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. 1997 yilda Qo'qon shahar XTBga qarashli 23-maktabga o'qishga kirib, 2008 yilda tamomladi. 2008 yilda Qo'qon davlat pedagogika institutining pedagogika fakultetiga o'qishga davlat granti asosida qabul qilindi. Qo'qon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Madinabonu Dadajonova Odiljon qizi 2011-2012 o'quv yilida Navoiy nomidagi davlat stipendianti bo'ldi. U institutda o'qishning birinchi yilidayoq o'zining tashkilotchiligi, ilmga chanqoqligi, o'qishga, topshirilgan vazifaga mas'uliyatliligi bilan talabalarga o'rnak bo'ldi. Fanlarni yuqori ko'rsatkichlarda o'zlashtirishi bilan birga jamoat ishlarida ham faol ishtirok etadi. Madinabonu Dadajonovaning ilmiy maqolalari turli nufuzli ilmiy to'plamlarda, Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plamida chop etilgan. Uning "Yoshlarda e'tiqod va sog'lom dunyoqarashni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik muammolari", "Maktab psixologining kasbiy tayyorgarligi va o'quvchilar bilan birga olib boriladigan ishlar", "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil individual o'quv harakatlarini shakllantirish", "Shaxslararo nizolarning psixologik muammolari", "Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik muammolari�...

**Siz ham portal imkoniyatlaridan foydalanib o'z iqtidoringizni namoyon qiling.**

**Siz iqtidorlisiz!**

# Kutubxona

ZiyoNET




Kutubxona bo'limida ilmiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, dars ishlanmalari va boshqa pedagogik ilmiy ishlar jamlanadi. Bu esa barcha pedagoglarning ish faoliyati jarayonida asqotadi. Ta'lim jaryonida uning mazmundorligini oshirishda kerak bo'ladigan foydali ilmiy-nazariy qo'llanmalar to'plami mujassam. Bugungi kunda mazkur bo'limda 24 mingdan ortiq resurslar mavjud.





ZiyoNET

# O’yinlar

Bugungi kunda ta’lim sohasida yangi pedagogik texnologiyalar yordamida dars o’tish metodikasidan keng foydalanib kelinmoqda. Aynan shunday pedagogik texnologiyalardan biri bu — o’yinlar yordamida xorijiy tillarni o’zlashtirish hisoblanadi. Portalda “**O’yinlar**” bo’limining asosiy vazifasi ham foydalanuvchilarga xorijiy tillarni o’rganish bo’yicha barcha imkoniyatlarni yaratishdan iborat.







Foydalanuvchi ID.UZda ro’yxatdan o’tgan bo’lsa, o’yin natijalari avtomatik ravishda saqlanib qolinadi va qatnashuvchilar reytingida ko’rinib turadi.

ZiyoNET

# O’zbekiston madaniy me’rosi







Yurtimizning turli hududlaridagi arxeologik majmualar, shahristonlar, qadimiy yodgorliklardan topilgan nodir ashyolar, metall va sopol buyumlar, libos va ziynatlar, devoriy bezaklar, uy-ro’zg’or anjomlari, mehnat qurollari, tarixiy materiallar muayyan davrga oid manzaralarni, har bir hududning o’ziga xos tarixi, etnografik xususiyatlarini ko’z o’ngimizda yaqqol tasvirlaydi. Mazkur bo’limda qadimiy qo’lyozma kitoblar, nodir nashrlar bu tabarruk zaminda ilm-fan, adabiyot, san’at gullab-yashnaganidan hikoya qiluvchi, naqshinkor o’yma ustunlar, me’morlik ashyolari, bezakdor bosh kiyimlari, liboslar, turli ziynatlar milliy an’ana va qadriyatlarimizni ifodalovchi ma’lumotlar jamlangan.

ZiyoNET

# Savol-javoblar

**Savol-javoblar** bo’linmasi bilimlar olami bo’lish bilan birga, bir vaqtning o’zida ko’ngilochar va ijtimoiy tarmoq hamdir. Har bir avtorizatsiyadan o’tgan foydalanuvchi savol berishi yohud boshqa foydalanuvchilarning savollariga javob bergan holda faol ishtirok etishi mumkin.










ZiyoNET

# Sayt-satellitlar






Foydalanuvchilariga qulayliklar yaratish hamda o'zlarining saytlarini bepul joylashtirish maqsadida ushbu xizmat portalda joriy qilingan. Sayt-satellitlar ***.uz*** milliy domenidagi uchinchi darajali sayt bo'lib, **ZiyoNET** portali tarkibida **"*.zn.uz"** domeni ko'rinishida faoliyat ko'rsatadi. Foydalanuvchi o'zining shaxsiy veb-sahifasini sayt-satelliti xizmati yordamida mutloqo bepul shakllantirishi mumkin. **ZiyoNET** portali tarkibida yaratilgan Sayt-satellitlar afzalliklari:

- Bepul domen;
- Bepul 500 MB xosting;
- Sayt dizayni

# Saytlar

ZiyoNET

**Saytlar** bo'limida foydalanuvchilarga qiziqarli va foydali axborotlar topish uchun havolalar taklif etiladi. Tarmoqqa ulangan ta'lim muassasalarida ro'yxatda ko'rsatilgan saytlarga tashqi traffik tugagan holda ham bepul kirish imkoniyati saqlanib qolinadi.












ZiyoNET

# Ta’lim muassasalari




**Ta’lim muassasalari** bo’limida O’zbekistonda joylashgan oliy ta’lim muassasalari, kollej, litsey, maktab hamda maktabgacha ta’lim muassasalari haqidagi umumiy ma’lumotlar bilan tanishasiz. Qidiruv tizimining mukammal darajaga keltirilganligi foydalanuvchining istalgan ta’lim muassasasini tez topishda qulayliklar yaratadi.









ZiyoNET

# Xorijiy tillar

Tarmoqdan foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida “**ZiyoNET**” portalining turli loyihalaridan o’rin olgan chet tillarini o’rganishga va o’rgatishga oid grammatik, fonetik va leksik materiallar bir manzilda jamlanib, “**Xorijiy tillar**” bo’limi tashkil etilgan. Ushbu bo’limdan chet tillariga oid dars ishlanmalari, video roliklar, til o’rgatishga oid o’yinlar va shu kabi ma’lumotlar o’rin olgan.









# e-Darslik

**“e-Darslik”** umumtalim darsliklarini (o’zbek, rus, qoraqalpoq va tojik tillarida) mobil telefonlarda va planshetlarda o’qish imkoniyatini beruvchi mobil dasturdir. Mobil dasturda darsliklar kutubxonasi mavjud bo’lib, foydalanuvchi ularni o’zining “kitob javoniga”, yani qurilmaning “Mening kitoblarim” bo’limiga yuklab olishi mumkin. Darsliklarni qidirish uchun darslikning qaysi tilda, qaysi fan va sinfga tegishli ekanligini tanlash imkoniyatini beruvchi maxsus filtrdan foydalanish mumkin.








ZiyoNET

# Loyixalar

ID.UZ
СИСТЕМА ИДЕНТИФИКАЦИИ

@uMail.uz

Fikr.uz
Qarashlar, Shaxslar va Jamiyat

ТАЪЛИМ ПОРТАЛИ
ZiyoNET

uTube
Таълим видеопортали

Tanlov
Конкурсы, Гранты и События

ZiyoNET

# ID.UZ



ZiyoNET

# uMail.uz



ZiyoNET

# Fikr.uz



ZiyoNET

# uTube.uz



ZiyoNET

# Tanlov.uz

Tanlov
Конкурсы, Гранты и События

Найти

Стена | О проекте | Оповестить | ZiyoNET ↑

## Talaba yoshlar uchun BMT mukofoti

Сентябрь 11th, 2015

**Qayerda:** AQSh

**Ariza topshirish muhlati:** 2015-yil 14-sentabr

**Kim uchun:** Bakalavr talabalari

**Grant miqdori:** To'liq qoplanadi

**Umumiy ma'lumot:**

BMT Jamg'armasi va BMT Assotsiatsiyasi Leo Nevas Inson Huquqlari ishchi guruhi Inson huquqlari yosh faoli mukofoti uchun tanlov e'lon qiladi. G'olib 2015-yil 3-noyabrda Nyu-York shahrida o'tkaziladigan Global Liderlik bazmida mukofotni qabul qilib oladi. Tadbirda BMT Bosh kotibi, AQShning BMTdagi elchisi va boshqa ko'plab yuqori martabali shaxslar ishtirok etadi. Читать полностью »

Акции, Чет тилида

## Jahon Banki guruhining Yoshlar Sammiti

Сентябрь 11th, 2015

**Qayerda:** AQSh

**Ariza topshirish muhlati:** 2015-yil 3-oktabr

**Рубрики**

- Акции
- Без рубрики
- Выставки
- Гранты
- Итоги конкурса
- Конкурсы
- Организации
- Программы
- События
- Соревнования
- Стипендии
- Ташкилотлар
- Тендеры
- Фестивали
- Чет тилида

**Архивы**

- Сентябрь 2015
- Август 2015
- Июль 2015
- Июнь 2015
- Май 2015
- Апрель 2015
- Март 2015
- Февраль 2015

ZiyoNET

Ta’lim portali ZiyoNET

# E’tiboringiz uchun rahmat!




Bog’lanish uchun ma’lumotlar:

Tel./faks: 0 (371) 239-19-48, 239-44-56.
ziyonet@xtv.uz, ziyonet@uzinfocom.uz, resurs@umail.uz.